

## MUSIQA PSIXOLOGIYASI VA UNDAGI QARASHLARNING NAZARIY TAHLILI

*Davronov Dilshodjon Doniyor o'g'li*

*Buxoro Xalqaro Universiteti 2 – kurs magistranti*

*[davronovdilshod696@gmail.com](mailto:davronovdilshod696@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa psixologiyasi fanining mazmuni, predmeti va vazifalari yoritilgan. Musiqani idrok etishning psixologik mexanizmlari, musiqaning emotsional holatlarga ta'siri hamda musiqa psixologiyasidagi asosiy ilmiy qarashlar tahlil qilingan. Shuningdek, musiqaning shaxs rivojiga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Maqola musiqa ta'limi, psixologiya va san'at sohasi bilan shug'ullanuvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** musiqa psixologiyasi, musiqani idrok etish, emotsiya, musiqiy tafakkur, shaxs rivoji.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИИ МУЗЫКИ И ВЗГЛЯДОВ НА НЕЕ

Давронов Дилшоджон Данир оглы

Магистрант 2 курса Бухарского Международного университета

**Аннотация:** В данной статье раскрыто содержание, предмет и задачи науки психологии музыки. Проанализированы психологические механизмы восприятия музыки, её влияние на эмоциональные состояния, а также основные научные концепции в психологии музыки. Кроме того, рассмотрено влияние музыки на развитие личности с научно-теоретической точки зрения. Статья представляет собой полезный источник для специалистов в области музыкального образования, психологии и искусства.

**Ключевые слова:** психология музыки, восприятие музыки, эмоции, музыкальное мышление, развитие личности

## THEORETICAL ANALYSIS OF MUSIC PSYCHOLOGY AND VIEWS ON IT

Davronova Dilshojon Danier ogli

Bukhara International University, 2nd year

Master's student

**Annotation:** This article explores the content, subject, and objectives of the field of music psychology. It analyzes the psychological mechanisms of music perception, the effects of music on emotional states, and the main scientific perspectives within

music psychology. In addition, the influence of music on personal development is examined from a scientific and theoretical standpoint. The article serves as a useful resource for those engaged in music education, psychology, and the arts.

**Keywords:** music psychology, music perception, emotions, musical thinking, personal development

Psixotahlil — bu ongdan siqib chiqarilgan istak va mayllarni qayta ravishda ong darajasiga olib chiqish hamda katarsis jarayoni orqali ruhiy og‘riq keltiruvchi kechinmalarni anglash asosida yordam berishga qaratilgan ta‘limotdir. Ushbu jarayonda erkin assotsiatsiya, tushlarni sharhlash, qarshilik holatlarini aniqlash, transfer (ko‘chirish) hodisasi va yanglish xatti-harakatlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalaniladi.

Quyida mazkur usullarga qisqacha sharh beriladi:

**1. Erkin assotsiatsiyalar usuli.** Psixolog mijozdan o‘z kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday bog‘lanma fikrlarni erkin bayon etishni so‘raydi. Mutaxassis esa nafaqat fikrlarning mazmuniga, balki ularning izchilligiga, voqealar ketma-ketligiga hamda mijoz chetlab o‘tishga urinayotgan jihatlarga alohida e‘tibor qaratadi.

**2. Tushlarni talqin qilish.** Zigmund Freyd ta‘kidlashicha, tush — ongsizlikka eltuvchi eng qisqa yo‘ldir. Tush jarayonida “Men”ning himoya mexanizmlari sustlashadi va yashirin istak hamda kechinmalar yuzaga chiqadi. Psixologning vazifasi tush mazmunini tahlil qilish va aynan shu tush paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarni aniqlashda mijozga ko‘maklashishdan iborat.

**3. Qarshiliklarni tahlil qilish.** Ushbu usulning maqsadi — muammoni real anglashga to‘sqinlik qilayotgan psixologik himoya mexanizmlarini aniqlashdir. Shuningdek, ayrim vaziyatlarda himoyaga ehtiyoj bo‘lmasa ham, mazkur mexanizmlar qanday namoyon bo‘layotganini aniqlashga xizmat qiladi.

**4. Ko‘chirish (transfer) tahlili.** Klassik psixotahlilda mijozning avval boshdan kechirgan ruhiy jarohatlari bilan bog‘liq hissiyotlarini psixologga yo‘naltirishi muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon psixologga mijoz muammolarining ildizini tushunish, uning xulq-atvori shakllanishiga ta‘sir etgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

**5. Interpretatsiya.** Maslahat jarayonida interpretatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul orqali mijoz o‘z kechinmalari va xatti-harakatlarining yashirin sabablarini anglay boshlaydi. Biroq interpretatsiya ehtiyotkorlik bilan olib borilishi lozim: psixolog mijoz qabul qila oladigan darajada va unga tushunarli tilda izoh berishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tavsiflar asosan klassik psixotahlilga xosdir. Shu bilan birga, psixoanalitik terapiyaning boshqa ko‘rinishlari ham mavjud.

Psixoanalitik terapiyaning psixotahlil bilan o‘zaro munosabati borasida ikki xil qarash mavjud:

- a) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan mazmun jihatidan farq qiladi;  
b) psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan miqdoriy jihatdan farq qiladi.

Birinchi yondashuvga ko'ra, klassik psixotahlilda analitik va mijoz faol hamkorlikda ishtirok etsa, psixoanalitik psixoterapiyada mijoz ko'proq davolanishga muhtoj bemor sifatida qaraladi.

Ikkinchi qarashga binoan esa, psixoanalitik psixoterapiya psixotahlildan seanslar soni va davomiyligi bilan ajralib turadi. Ya'ni terapevtik uchrashuvlar son jihatidan kamroq va davom etish muddati qisqaroq bo'ladi. Har ikkala fikrni taqqoslab shunday xulosaga kelish mumkin: analitik psixoterapiya ham klassik psixotahlil kabi mijozda namoyon bo'layotgan belgilar va muammolarning ongsiz mazmunini ochishga katta e'tibor qaratadi.

Ikkinchidan, terapiyaning ushbu turi psixoanalitik usullar yordamida shaxsni yoppasiga taftish qilmasligi bilan psixotahlildan farqlanadi. Terapevt ruhiy buzilishning paydo bo'lishi va surunkali kechishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan mijoz psixikasining qirralarinigina tekshiradi.

Qisqa psixoanalitik terapiyada esa terapevtik faollik darajasi oddiy psixoanalitik terapiyadan, xatto, psixotahlilning o'zidan ham yuqoridir. Qisqa psixoanalitik terapiya diqqatni mijozining qator ziddiyatlariga emas, balki markaziy ziddiyatlarga jamlaydi, fokuslashtiradi. Shuning uchun bu terapiyani ko'p hollarda fokusli (yoki konsentratsiyalashgan) terapiya (Fokal Therapie) deb atashadi. Qisqa terapiya seanslari 10 tadan 30 tagacha bo'lishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan kasallik genezisida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmagan va tahlil jarayonida aniqlanmagan zararli ziddiyatlar hisobga olinmaydi.

**Bixeviorizm.** Bixeviorizmning asoschisi DJ.Uotson (1878-1938) psixologiya fanining bosh vazifasi xulqni tadqiq etishdan iborat deb tushunadi. U psixik jarayonlarni butunlay inkor etib, xulq-atvorni ikki ko'rinishga — ichki va tashqi shakllarga ajratadi hamda ularning har biri stimul va javob reaksiyalari bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydi. Bixeviorizmida "xulq" markaziy tushunchaga aylanadi, uning psixika bilan bog'liqligi esa e'tibordan chetda qoladi. Shunga qaramasdan, ba'zi bixevioristlar, jumladan E.Torndayk, E.Tolmen, K.Xall, D.Xebb kabilar xulq motivasiyasiga muayyan darajada e'tibor qilganlar. Ular o'zlarining izlanishlarida xulq motivasiyasining "quyi darajalari"ni o'rganib, kalamushlarda tajriba ishlarini olib borib, jonivorda ochlik, tashnalik va ularning turlicha darajalarini reaksiya tezligiga nisbatan namoyon bo'lish xususiyati, har xil sharoitda motivatsiyaning kuchi to'g'risida muayyan qonuniyatlar ochishga intilganlar. Hozirgi zamon bixevioristlari stimulni tashqi qo'zg'atuvchi sifatida talqin qiladilar va organizmning ichki energiyasini faollashtiruvchi deb hisoblaydilar. Neobixevioristik nazariyalar yangi qo'zg'atuvchilar paydo bo'lishiga asoslangan bo'lib, ular insonning organik eshtiyojlarini qoniqtirish bilan stimul natijasining uyg'unlashuvi tariqasida

tashlil etiladi. Ularning ta'kidlashiga ko'ra, ikkilamchi qo'zg'ovchilar organik qo'zg'atuvchilarning go'yoki qobig'iga o'xshaydi, xolos. Vilyam Makdugall (1871-1938) motivatsiyaning irsiy (tabiatdan beriladigan) xususiyatga ega degan holatni asoslash uchun tug'ma instinktlar masalalari bilan mazkur voqelikni bog'lab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikricha, tug'ma instinktlar ham insonlarga, ham hayvonlarga bir tekis taalluqli bo'lib, ular odamlarning motivida oldin 14 ta, keyinchalik esa 18 tagacha "asosiy instinktlar" sifatida hukm surishi mumkinligini takidlab o'tilgan.

**Umuman olib qaraganda, bixevioristlar uchun bir qator holatlar o'ziga xoslikka egaligini yaqqol ko'rishimiz mumkin:**

**Gumanistik yo'nalish.** Mazkur yo'nalish ekzistensializmning falsafiy g'oyalariga asoslangan bo'lib, vaqt, hayot, o'lim, ozodlik, masuliyat, tanlov huquqi, muloqot, sevgi, hayot mazmunini anglash muammolarini o'rganishga qaratilgan (M.Xaydegger, P.Sartr, A.Kamyu). Inson mehribon, ozod bo'lishi belgilangan deb qabul qilinib, individuallik integrativ yahlitlik hisoblanadi.

#### **Gumanistik yo'nalishning asosiy tamoyillari:**

1. Psixolog va mijoz uchrashuvlari ikki har xil kishilarning uchrashuvidir.
2. Agarda psixolog mijozga o'zining asl his-tuyg'ularini anglashga, qabul qilishga va namoyon qilishga imkon yaratib bera olsa, mijoz muammolari o'zo` zidan hal bo'ladi.
3. O'z hayot tarzi, fikr-mulohazalari, xulq-atvorini tanlashga mijoz o'zi mas'ul.

Inson tomonidan ruhiy uyg'unlikka erishish, yani hayot mazmunini anglash, ma'naviy qadriyat, estetik his-tuyg'ularni sifatiiy o'zgarishiga asos bo'ladi. Men - konsepsiyasini adekvat shakllantirish o'z-o'zini anglash va shu asosida o'zini faollashtirish uchun muhim omil hisoblanadi.

Psixokorreksion yordam ko'rsatishda mijozni o'z-o'zini anglashi, shaxsiy uyg'unlik, "men"ni adekvat integratsiyasiyaligi, borliq chegaralarini kengaytirib berish xususiyatlari psixologning asosiy vazifasi hisoblanishi ko'zda tutilgan.

Ushbu yo'nalishning asosiy metodi ekzistensial tahlil hisoblanib, unda "inson - biladi - his etadi - istaydi" formulasi inson ozod mavjudot tushunchasi asosida tahlil qilinadi. Agarda individ kelajakni tasavvur qila olmasa, o'zini salbiy his etib, ichki olami torayadi, rivojlanish imkoniyatlari sustlashib, oqibatda nevrozlar yuzaga kela boshlaydi. Demak, yordam ko'rsatish vaqtida shaxsning ruhiy olamini tahlil qilish asosida o'zini erkin his qilishga imkon yaratib berib, mijozni uni bog'lab turgan, bezovta qilayotgan oqibatlardan xalos qilinadi.

#### **Psixokorreksiyaning asosiy yo'nalishlari**

**Psixodinamik yo'nalish.**Psixodinamik yo'nalishga psixoanalitik nazariyaga yo'naltirilgan psixoterapiya turlari kiradi: klassik psixotahlil (Freyd), Adlarning 141

individual psixologiyasi, Yungning analitik psixologiyasi, Rankning irodaviy terapiyasi, Shtekelning faol analitik terapiyasi, Fromm-Rayxmannning interpersonal psixoterapiyasi, Xorning xarakterologik tahlili (tahlili), gumanistik psixotahlil (Fromm), Klyaynning ego-tahlili, Sallivanning interpersonal psixoterapiyasi va boshqalar. Mazkur yo`nalish asosi Z.Freydning ishlaridir. Freyd birinchi bo`lib psixikani instinkt, aql va ongning urish maydoni sifatida tasvirlagan.

«Psixodinamik» atamasi shaxsni tashkil qiluvchi tuzilmalar orasidagi tugallanmas tortishuvlarni aks ettiradi.

Psixodinamik yo`nalish ta'limoticha, determenizm ongsiz psixik jarayonlar bilan ta'riflanadi. Shunga binoan shaxsda anglanmagan qarama-qarshi motivlarni, intrapsixik mojarolarni asl sabablarini hamda mijoz muammolarini hal qiluvchi muhim yechimlarni mijoz tomonidan anglanilishi muhimligiga etibor beriladi. Z.Freyd o`z asarlarida instinktiv hayot talabi va unga qarshilik ko`rsatish natijasida yuzaga keladigan intrapsixik mojarolar oqibatida insonda turli kasalliklar namoyon bo`la boshlashini ma'lum qiladi.

Psixodinamik yo`nalishning asosiy maqsadi anglanmagan holatlarni anglanilishidir. Psixodinamik yo`nalish asosida faoliyat ko`rsatayotgan psixolog shaxsni chegaralangan, bosilgan impulslari ularga ko`rsatilgan qarshiliklarini topishga qaratilgan. Ularning fikricha, anglanish hosil bo`lishi bilan shaxsda o`zgarishlar yuz bera boshlaydi.

### **Psixodinamik yo`nalishning asosiy jarayonlari:**

1. **Konfrontatsiya** – mijoz tomonidan tadqiqot uchun zarur bo`lgan psixik jarayonlarning aniqlanishi.
2. **Aniqlik kiritish** – aniqlangan jarayonlarning asosiylarini qo`shimchalaridan ajratish.
3. **Interpretatsiya(izohlash)** – voqealarni asosiy mazmuni yoki sababini aniqlash.
4. **Qayta ishlash** – qaytarish yordamida berilgan materialni mijoz tushunchasida integratsiya qilish.

Psixodinamik yo`nalishda asosan mustaqil assotsiatsialar, ko`chirish va qarshilik reaksiyalarini tahlili, tush ko`rish tahlili hamda kutilmagan xatti-harakatlar tahlilini o`z ichiga olgan verbal usullardan iborat metodlardan foydalaniladi. Masalan, Freyd asosan “katarsis” metodidan, Yung “faol tasavvur” metodidan, Xorni “hayot yo`llarini birgalikdagi tahlili” metodlaridan foydalangan bo`lsa, Sallivan psixiatrik intervyu metodlarini qo`llagan.

*A.Adlerning analitik individual psixokorreksiyasi.* Uning bosh g`oyasi quyidagicha: inson mukammallikka intiladi, chunki unda o`zidan qoniqmaslik hissi va uni tugatish istagi bo`ladi. Bola atrofidagi olam undan katta, kuchli ekanligini ko`rgani bois unda o`zidan qoniqmaslik hissi paydo bo`ladi. Ota-onaning nodemokratik

munosabati bu hisni yanada chuqurlashtirib yuborishi mumkin.

**O`zidan qoniqmaslik hissi** – to`liqsizlik kompleksini tugatish uchun inson o`zo`ziga o`zining kuchini ko`rsatishga harakat qiladi. Bu jarayon konstruktiv (bunda boshqalarga yaxshilik qilish hisobiga insonning o`ziga bo`lgan hurmati oshadi) yoki destruktiv (bunda boshqalarni kamsitish evaziga insonning o`ziga bo`lgan hurmati oshadi) yo`l bilan amalga oshishi mumkin. To`liqsizlik kompleksining paydo bo`lishiga yo`l qo`ymaslik uchun bola o`zini xavfsiz his etishi kerak. A.Adlerning mashhur asari “A'zolarning to`liqsizligi haqida” deb nomlanadi.

**Shaxsga yo`naltirilgan terapiya.** 1951 yilda K.Rodjers o`zining shaxs va xulqatvor nazariyasini “Mijozga yo`naltirilgan terapiya” kitobida keltirib o`tadi. Ushbu nazariyaga ko`ra xavotirlanish bu organizmning idrok oldi vaziyatga noqulaylik va qo`zg`alish ko`rinishidagi reaksiyasidir. Xavotirlanish holatida idrok va tushunishda

“Men”-kontsepsiyasi yoki malaka o`rtasida nomuvofiqlik yoki nokongruentlikning vujudga kelishi kuzatiladi. Natijada “Men”-kontsepsiyasining hozirgi holatida yetakchi bo`lgan o`zgarishlar vujudga keladi. Ushbu nazariyaga ko`ra, inson o`zini tushunish va o`zgartirish uchun cheksiz katta imkoniyatlarga ega. Biroq bu imkoniyatlarni kashf etish va ro`yobga chiqarish uchun odamga maxsus sharoit kerak. Bu sharoit uch shartga asoslanadi:

Ushbu terapevtik yo`nalishda asosiy e'tibor terapevtik metodga emas, balki psixolog va mijoz o`rtasidagi munosabatga qaratiladi. Bunda psixolog mijozni boshqarmaydi, unga ko`rsatma bermaydi, faqat o`zaro munosabatda ochiqlik, samimiylik, hamdardlik muhitini yaratadi. Mijoz o`z muammosining yechimini o`zi topadi. Shaxsga yo`naltirilgan terapiyada quyidagi mashqlar qo`llaniladi:

A. “O`zlik ideal o`zlikka qarshi”. Mijozga o`zidan norozi bo`lgan jihatlarni yozib berish taklif etiladi. Bunda real va ideal “Men” haqidagi tasavvurlarning o`rtasidagi tafovutni aks ettirish so`raladi. Masalan, inson o`zidagi biror kamchilikni bayon etgach, shu vaziyatdagi ideal «Men»ning holatini ham ifodalashi lozim bo`ladi. B. “Mijozga yo`naltirilgan terapevt”. Bu mashq guruhliy holatda alohida juftliklarda amalga oshiriladi. Sherik tanlash ixtiyoriydir. Bunda mijozdan sherigiga aytib berish qiyin kechadigan, masalan, yolg`on gapirgan, nohaq bo`lgan vaziyatlarni so`zlab berish so`raladi. Terapevt rolini bajaruvchi sherik esa uni diqqat bilan tinglab, maksimal darajada tushunishi va hikoyani qayta so`zlab berishi lozim bo`ladi.

Ammo bunda sherigining haq yoki nohaqligini baholamagan holda sherikka teng munosabatda bo`lish talab etiladi. So`ng rollar almashilgan holda mashq davom ettiriladi.

V. “Qarshiliklar tahlili”. Bu mashq juftliklarda, shaxsiy qarshilikni anglash maqsadida o`tkaziladi. Juftlikning har bir a'zosidan o`zi uchun qadrlı bo`lgan biror sir 144 haqida o`ylash so`raladi. So`ng bu sirni sherigiga aytsa, u qanday javob reaksiyasi ko`rsatishi mumkinligini tasavvur etish taklif etiladi. Ammo muhokama jarayonida

o`zining siri haqida emas, balki faqatgina sherigining namoyon etishi mumkin bo`lgan javob reaksiyasi haqida so`zlash taklif etiladi.

Musiqqa psixologiyasi - psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqaviy eshitish qobiliyatini, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktil ya'ni paypaslab sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalalarni qamrab oladi. Musiqiy iste'dod va zakovat o`zining cheksiz imkoniyatlari, mo'jizaviy tabiati bilan insonni hayratga soladi va o`ziga maftun etadi. Musiqqa psixologiyasi juda qadim davrlardan o`rganib kelinmoqda. Musiqqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar antik davr faylasuflari asarlarida va o`rta asrlarga kelib sharqning buyuk mutaffakkirlari asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan: Pifagor asarlarida, uning "evritmiya" Foydalanilgan adabiyotlar ta'limotida musiqqa psixologiyasi haqida gap boradi. Pifagor evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Shu tarzda ijtimoiy hayotni musiqaga ya'ni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan.

Orkestrda har bir ijrochi ma'lum bir cholg'uni chalganidek, hayotda har bir insonning o'z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan va shu tariqa musiqqa va inson psixologiyasi bir biriga chambachas bog'liqligi haqidagi fikrlar taraqqiy eta boshlagan. Musiqqa psixologiyasining yana bir yo'nalishi bu - musiqiy ijrochilik psixologiyasidir. Bu yo'nalishda musiqqa san'atidagi asosiy faoliyatlardan biri musiqqa ijrochiligidir. Zo'r ijroni tinglab, lazzat, quvonch, ilhom tuyg'ularini his etamiz yoki yunonlar aytganidek, "ichki", ruhiy poklanish va yangilanish ro'y beradi. Musiqiy idrok psixologiyasi - musiqani tinglab idrok etishini ham huddi musiqqa yozish va ijro etish kabi musiqqa san'atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqqa san'ati o'z ma'nosini yo'qatadi va yashashdan to'xtaydi.

Musiqqa tinglash va uni idrok etish musiqqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin. Musiqiy ta'lim-tarbiya psixologiyasi - musiqqa psixologiyasining mazkur tarmog'i psixologik yo'riqlariga asoslanadi, o'quvchilar bilan ishlashning aniq usullarini topishga yordam beradi. Bu tarmoq o'quvchilarning tabiiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltiruvchi va musiqiy qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi musiqqa pedagogikasiga uzviy bo'g'liqdir. Musiqani eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritmni aniqlash, tekshirish kabi an'anaviy usullar bilan bir qatorda musiqqa psixologiyasida musiqiy zehn, is'tedod, qobiliyatlarni aniqlash, asarni o'rganish va uning ustida ishlash, konsertda chiqish

uchun tayyorgarlik ko‘rish, o‘quvchilar va konsert jamoasi bilan o‘zaro munosabatlar va boshqa testlar ishlab chiqilgan. Musiqa ta‘limi va tarbiya psixologiyasi ikki yo‘nalishda o‘rganiladi: bu maxsus musiqa ta‘limi va umumiy musiqa tarbiya yo‘nalishidir.

Musiqashunoslik, musiqa targ‘iboti va musiqiy ma‘rifat psixologiyasi - musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ‘ibotchilari, musiqa ma‘rifati bilan shug‘ullanuvchilar musiqa holatidagi fanlarni o‘rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi hamda klub, istirohat bog‘lari, dam olish uylari, radio, telvideniya, matbuot va boshqa joylarda omma o‘rtasida madaniy-ma‘rifiy ishlarni olib borishadi. Musiqa psixoterapiya psixologiyasi - sog‘lomlashtirish maqsadida foydalanilgan musiqa musiqiy psixoterapiyada o‘rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo‘ljallangan musiqa tavsiya etiladi. O‘zbekistonda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o‘rganilmagan, negaki u ham meditsina, ham musiqa sohalari bo‘yicha jiddiy ilmga ega bo‘lishni taqazo etadi. Biroq buyuk mutaffakir - olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko‘rish mumkin.

Musiqaning inson salomatligi, emotsional holatiga ta‘sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta‘siri tibbiyotda ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir. San‘at ustalari shaxsning xususiyatlarini odatda rus tilida “t” harfi bilan boshlanadigan beshta so‘zga bog‘lashadi. Bular “талант” - is‘tedod, “творчество” - ijod, “трудолюбие” - mehnatsevarlik, “терпения” - sabr, “требовательность” - talabchanlik. Bu yerda musiqachining iste‘dodi katta ahamiyatga ega. Masalan, yosh Motsart Vatikanda xor ijrosidagi murakkab asarni atigi ikki marta eshitib, ikki kundan so‘ng o‘z xotirasida saqlab qolgan o‘sha to‘liq partiturasining qo‘lyozmasini Rim Papasiga topshirgan. Mashhur Italyan dirijori Arturo Toskanini deyarli butun konsert repertuarini yoddan dirijorlik qilgan. U o‘n yil avval yodlagan asarini ham esda saqlagan. Ferens List murakkab asarlarni konsertga aravada ketayotib yodlab olgan. Bu misollarning barchasi shaxsning musiqiy xotira deb ataluvchi psixologik xususiyatiga bog‘liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. G‘oziyev E.G‘. **Umumiy psixologiya.** — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Karimova V.M. **Psixologiya asoslari.** — Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Petrovskaya L.A. **Musiqa psixologiyasi asoslari.** — Moskva: Akademiya, 2008.
4. Teplov B.M. **Musiqiy qobiliyatlar psixologiyasi.** — Moskva: Pedagogika, 1985.
5. Hallam S. **The Psychology of Music.** — London: Routledge, 2006.